

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOV FURQAT DJUMABOYEVICH

**AKADEMIK LITSEYLARDA KVANT FIZIKASI BO‘LIMINI O‘QITISH
METODIKASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) Dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Maxmudov Furqat Djumaboyevich

Akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitish metodikasini raqamli
texnologiyalar asosida takomillashtirish 3

Махмудов Фурқат Джумабоевич

Совершенствование методики преподавания квантовой физики в
академических лицеях на основе цифровых технологий..... 21

Makhmudov Furkat Djumaboevich

Improving the teaching methodology of quantum physics in academic lyceums
based on digital technologies 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOV FURQAT DJUMABOYEVICH

**AKADEMIK LITSEYLARDA KVANT FIZIKASI BO‘LIMINI O‘QITISH
METODIKASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4511 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qahhorov Siddiq Qahhorovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tursunov Qahhor Shonazarovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Lutfillayev Maxmud Xasanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti, 1-qavat, ___ xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15 uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Ashurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

R.M.Rajabov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

A.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ta'lim tizimida kvant fizikasini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash, dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali elektron resurslar, masofaviy ta'lim shakllaridan keng foydalanishga alohida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim vositalarini vizuallashtirish va raqamli texnologiyalar yutuqlarini tatbiq etish orqali ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, tahliliy natijalarni umumlashtirish hamda xulosalash mexanizmlarining amaliyoti alohida o'rin tutadi.

Dunyoda aniq va tabiiy fanlar, jumladan, umumiy fizika kursining kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali virtual elektron resurslarni ishlab chiqish va ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish maqsadlariga qaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlar ulushi oshib bormoqda. Ayniqsa, o'qituvchi va pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish uchun innovatsion elektron ta'lim muhiti sharoitida fizik jarayonlarda raqamli texnologiyalarni qo'llash, dasturiy vositalardan foydalanish, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida multimediali elektron vositalarni qo'llashda optimal yondashuvlar bilan bog'liq ilmiy ishlanmalar ko'lamini oshirishga talab ortganligi ko'zga tashlanmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali kadrlar tayyorlash sifati hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon amaliyoti tajribalariga tayanib sifat darajasini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida "Ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi, o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish" ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistonda xorijiy ta'lim tajribalari asosidagi ijobiy yutuqlarni umumlashtirish hamda rivojlantirish, innovatsion axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, fanlarning axborot-metodik ta'minotini yaratish, elektron ta'lim resurslaridan oliy ta'lim jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralash tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son "Fizika

sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Fizika sohasida fanning nazariy talablarida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning o'ziga xos metodik jihatlarini ishlab chiqish respublikamiz olimlari: B.M.Mirzaahmedov, M.Djo'rayev, N.H.Avliyoqulov, O.Quvondiqov, S.Q.Qahharov Sh.Eshquvvatov, U.Begimqulov, B.Nurillayev, G.N.Yunusova, G.A Umarova, P.M.Jalolova, M.F.Atoyeva, M.I.Daminov, N.S.Matjanov, G.Karlibayeva va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fizika o'quv fani uchun metodik tizimni mashhur fizik olimlaridan: A.G.G'aniyev, A.K.Avliyoqulov, G.A.Alimardanova, M.H.O'lmasova, A.S.No'monxo'jayev, A.M.Xudayberganov, K.A.Tursunmetov, M.A.Fattoxov, N.A.Nurmatov, B.Normatov, A.A.Uzoqov, I.Bo'riyev, A.M.Xudoyberganov, Q.T.Suyarov, Sh.N.Usmonov, J.E.O'sarov, A.X.Husanov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, elektron ta'limni rivojlantirish, elektron axborot-ta'lim resurslari va dasturiy qobiqlarni yaratish va qo'llashga oid tadqiqotlar yurtimizda: F.M.Zakirova, M.H.Lutfillayev, A.A.Abdiqvasiyeva, D.E.Toshtemirov, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov, B.Sapayev, G.N.Yunusova, M.A.Fayziyevlarning ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida yuqori sinf o'quvchilari ta'limning pedagogik-psixologik jihatlarini o'rganishga doir tadqiqot ishlari B.V.Selyuk, D.V.Yevgeniy, V. Lemenkova, S.V. Lozovenko, D.V. Petrova, A.A Sviridov, O.E. Tigay., Yu.I. Gilfanova va A.B. Smirnovlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan o'rta ta'lim muassasalarida AKT orqali ta'lim olish masalalariga oid izlanishlar: G Ravaioli, Ellen Karoline Henriksen, Laurah Markus, Stephanie Sungkim kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Fizika, matematika, informatika va boshqa fanlarning o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir juda ko'p monografik tadqiqot ishlari o'tkazilgan bo'lsa-da, bugungi axborot asrida raqamli texnologiyalarga talab va ehtiyojlarning doimiy yangilanib va takomillashib borayotganligi akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limini o'qitish, fizik qonuniyatlarni o'rganishda raqamli texnologiyalar yordamida dasturiy vositalardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini takomillashtirish muammosi monografik tadqiq etilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Kvant fizikasi bo'limini o'qitishni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish" mavzusi (2019-2023 y.y) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyalarning dasturiy vositalari, pedagogik ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish holatini, raqamli texnologiyalardan foydalanish va tatbiq etishning asosiy pedagogik shart-sharoitlarini tizimli tahlil qilish orqali aniqlashtirish;

akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli texnologiyalar asosida multimediali o'quv kursning tarkibiy tuzilmasi va modulini takomillashtirish;

kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanib, virtual laboratoriya mashg'ulotlar majmuasini ishlab chiqish;

kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish modelining samaradorligini tajriba-sinov jarayonida matematik-statistik qayta ishlash orqali aniqlash.

Tadqiqotning obyekti: akademik litseylar aniq fanlar(texnik) yo'nalishida kvant fizikasi bo'limi mavzularini raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida o'qitish jarayoni belgilangan bo'lib, unda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali akademik litseyi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali akademik litseyi va Jizzax politexnika instituti akademik litseylaridan 328 nafar o'quvchi respondent sifatida jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini: akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limini o'qitishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli texnologiyalarning mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'qitish shakli, tamoyillari, tatbiq etish holati, o'qitish metodlari, vositalari, loyihalash bosqichlari (tahlil qilish, integrativlik, kompetensiyaviylik, ijodiy) mazmunini ochib berish asosida aniqlashtirilgan;

akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish o'quv jarayonini innovatsion loyihalashga qaratilgan ko'rgazmali, munozarali, loyiha-grafikli va o'zini o'zi baholovchi dasturiy ta'lim vositalari yordamida multimediali o'quv kursning tarkibiy tuzilmasi va moduli takomillashtirilgan;

kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalarning LabVIEW dasturiy vositasi yordamida asbob-uskunaviy, sxematik-tasvirli, elektron-qurilmali virtual laboratoriya ishlari majmuasi (adaptivlik, axborotlilik, integrativlik) ustuvorligi bo'yicha usul takomillashtirilgan;

kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi multimediali o‘quv kursi hamda LabVIEW dasturiy vositasi yordamida ishlab chiqilgan virtual laboratoriya mashg‘ulotlaridan (darsda va darsdan tashqari) foydalanish bo‘yicha olib borilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitish ta’lim jarayonini innovatsion loyihalashga qaratilgan ko‘rgazmali, munozarali, loyiha-grafikli va o‘zini o‘zi baholovchi multimediali o‘quv kurs ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limi mavzulari bo‘yicha laboratoriya ishlarini bajarishda LabVIEW dasturiy vositasi yordamida virtual laboratoriya mashg‘ulotlar majmuasi ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida “Akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish” nomli metodik o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Qo‘llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari tahlili yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarga vakolatli tashkilotlar tomonidan ijobiy xulosalar berilganligi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, raqamli texnologiyalar negizida yaratilgan multimediali o‘quv kurslarni joriy etish, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda LabVIEW dasturiy vositasi va raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limiga oid multimediali o‘quv kurs, virtual laboratoriya ishlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarining ahamiyati, metodikasini yaratish hamda ular yordamida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonida qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar asosida ta’limning dasturiy vositalarini yaratish va undan o‘quv jarayonida foydalanish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonini innovatsion loyihalashga qaratilgan ko‘rgazmali, munozarali, loyiha-grafik va o‘zini o‘zi baholovchi dasturiy ta’lim vositalari yordamida multimediali o‘quv kurs ishlab chiqish asosida mazmunan takomillashtirishga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutining “OT-Atex-2018-519 Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual resurslar veb ilovasining dasturiy ta’minotini yaratish” (2019-2022-y.y.) mavzusidagi grant loyihasini “Multimediali ta’lim vositalarini ishlab chiqish” qismini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil

10-apreldagi, 935/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada akademik litsey o'quvchilarining kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'zlashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini, yanada kengayishiga xizmat qilgan;

kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalarning LabVIEW dasturiy vositasidan foydalanib, asbob-uskunaviy, sxematik-tasvirli, elektron-qurilmali virtual laboratoriya ishlari majmuasi (adaptivlik, axborotlilik, integrativlik) orqali takomillashtirilgan metodik tavsiyalar "Akademik litseylarda kvant fizikasini o'qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyul sanasidagi 314-son buyrug'i, 314-687 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada akademik litsey o'quvchilarida kvant fizikasi bo'limi mavzulariga oid virtual laboratoriya mashg'ulotlaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlantirilgan;

kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishni sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi multimediali o'quv kurs hamda LabVIEW dasturiy vositasi yordamida ishlab chiqilgan virtual laboratoriya mashg'ulotlaridan (darsda va darsdan tashqari) foydalanish bo'yicha olib borilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarining tahlili asosida ilmiy-metodik taklif va tavsiyalardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanilgan tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutining "OT-Atex-2018-519 Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual resurslar veb ilovasining dasturiy ta'minotini yaratish" (2019-2020 y.y.) mavzusidagi grant loyihasini "Ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish metodikasi" qismini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 10-apreldagi, 935/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning kvant fizikasi bo'limi mavzularini raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitish metodikasini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalariasosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida 1 ta o'quv qo'llanma va Intellektual mulk agentligining 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiyaning ilovadan tashqari asosiy qismi 122 bet hajmida rasmiylashtirilgan bo'lib, kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, 184 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan,

tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli ta’lim texnologiyalar asosida kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limining hozirgi kundagi o‘qitish holati, o‘quv jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan raqamli ta’lim texnologiyalari tahlili hamda akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limiga raqamli ta’lim texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinib, didaktik imkoniyatlari aniqlangan va akademik litseylarda aniq fanlar texnik yo‘nalishi malaka talabidan kelib chiqib, kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning maqsad hamda vazifalari belgilangan. Mazkur bo‘limni o‘qitishga mo‘ljallangan, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-tadqiqot ishlar hamda ta’lim jarayonida raqamlashtirish maqsadlariga qaratilgan virtual elektron resurslar qiyosiy tahlil qilinib, ta’lim jarayoni sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari keltirilgan.

Akademik litseylar o‘quv jarayonida M.H.O‘lmasova N.Sh. Turdiyev, K.A.Tursunmetov, A.G.G‘aniyev, Q.T.Suyarov, J.E.Usarov, A.K.Avliyoqulovlarning fizika o‘quv fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va darsliklaridan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Ushbu o‘quv adabiyotlar bo‘yicha qilingan tahlil natijalarimizga ko‘ra kvant fizikasi bo‘limida berilgan mavzulardagi har bir tushunchalar, qonunlar ta’riflangan, masala yechish namunalari, mustaqil ishlash uchun masalalar berilgan, adabiyotlar ilmiy va metodik jihatdan batafsil tahlil qilingan. Kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitishda dasturiy vositalar yordamida elektron ta’lim resurslarini joriy etish, fizika fanidan raqamli laboratoriyalardan foydalanishning asosiy funksiyalari, raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning o‘ziga xos tamoyillari: multimedia, uzluksizlik, tushunarlik, muvofiqlik, axborotni zaxiralash, interaktivlik tamoyillarining vazifalari hamda imkoniyatlari batafsil bayon qilingan. Zamonaviy o‘quv-fizik eksperiment qo‘llanilishi o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘qitish usullari, yangi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishda hamda ta’lim sifatini oshirishda xizmat qiluvchi raqamlashtirilgan tabiiy fizik eksperiment (RTFE) va raqamli model eksperiment (RME) shakllarida o‘tkazilishi ijobiy natija berishi yoritilgan. O‘quv jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan raqamli ta’lim texnologiyalar tahlili, tatbiq etish imkoniyatlari hamda Autoplay Media Studio dasturi, Java va Macromedia flash, LabVIEW dasturiy vositalaridan foydalanish afzalliklari, o‘qitish metodlari, vositalari, loyihalash bosqichlari (tahlil qilish, integrativlik, kompetensiyaviylik, ijodiy) mazmunini ochib berish asosida aniqlashtirilgan. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishining obyekti akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishni takomillashtirish bo‘lganligi sababli akademik litseylar uchun yaratilgan kvant fizikasi bo‘limining mazmunini alohida tahlil qilish lozim deb hisoblandi.

M.H.O‘lmasova muallifligida “Akademik litseylar uchun fizika optika, atom va yadro fizikasi” o‘quv qo‘llanmasining VI bobi kvant fizikasi bo‘limi hisoblanib, bu

bo‘lim 10 ta paragrafdan iborat bo‘lib, 64-74-sahifalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur bo‘limning birinchi paragrafida “Yorug‘lik kvant nazariyasining vujudga kelishi, yorug‘lik kvantlari mavzusida issiqlik nurlanishi, absolyut qora jism modeli, jismning nur chiqarish va nur yutish qobiliyati, Maksvell elektrodinamikasi asosidagi nazariya, Plank doimiysi, Plank nazariyasi va kvant energiyasi mavzulari haqida tushunchalar berilgan bo‘lib, mazkur paragraf mavzusini o‘quvchilarga 1-juftlik (80min) tushuntirib, yetkazib berish o‘qituvchilar oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, o‘quvchilarga qisqa muddatda ko‘proq bilim berish, ularning mustaqil dars qilishga qiziqishini oshirish hamda fizik qonuniyatlarining mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berish kvant fizikasi bo‘limi mavzularini raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish kerakligini taqozo etadi.

Kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda ta’lim mazmunining hozirgi holatini o‘rganish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

- yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqot ishlari shu sohaga yaqin bo‘lsa-da, akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan;

- amalda foydalanib kelinayotgan o‘quv darsliklarning ayrim mavzulari amaliyot bilan uyg‘unlashtirilmagan;

- kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlaridan foydalanish talab darajasida emas;

- kvant fizikasi bo‘limi bo‘yicha zamonaviy talablar asosida yaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari yetarli emas;

- o‘quvchilarning fizik hodisalar mohiyatini tushunishi, tahlil qilishi, xulosa chiqarishi qoniqarli emas;

- kvant fizikasi bo‘limiga doir masala yechish ko‘nikmasini rivojlantirishga e’tibor qaratilmagan;

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili quyidagi asoslarni umumlashtirishga imkon beradi: o‘quv jarayonida kvant fizikasi bo‘limi mavzulariga doir virtual laboratoriya ishlari, elektron darslik, elektron dars ishlanmalari va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish uzluksiz ta’lim tizimida kvant tasavvurlarni shakllantirishga ulkan hissa qo‘shadi. Dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitishda ko‘zga ko‘rinmaydigan (murakkab) fizik jarayonlarni vizuallashtirib tushuntirish orqali nazariy bilimlarni puxta o‘rgatish hamda uni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etishlari uchun mazkur bo‘lim mavzulariga doir virtual laboratoriya mashg‘ulotlar majmuasini ishlab chiqishda raqamli texnologiyalardan foydalanish kerakligi xulosa qilindi.

“Akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish” deb nomlangan ikkinchi bobida kvant fizikasi bo‘limida “Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusi keltirilgan bo‘lib, kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitishda multimediali o‘quv kursi va LabVIEW dasturiy vositasida

ishlab chiqilgan virtual laboratoriya ishlarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish modeli keltirilgan.


Fizika fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalarining kvant fizikasi bo'limini raqamli texnologiyalar yordamida dasturiy vositalarni qo'llab o'qitishni taqoza etadi. Mazkur bo'lim mavzularini yaxshi o'zlashtirish bilan birga egallagan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliyotga tatbiq etish uchun raqamli texnologiyalar yordamida dasturiy vositalardan foydalanib, virtual laboratoriya mashg'ulotlari tashkil qilinsa, dars sifatining oshishiga erishiladi. Shunday ekan, kvant fizikasi bo'limi mavzularini tushuntirishda har bir mavzu misolida nazariy bilimlarni puxta egallash, amaliyotga bog'lash, amaliy mashg'ulotlarni bajarishda virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quvchilarda fikrlash, tahlil qilish, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish va ijodkorlik kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kompyuterga asoslangan interfaol o'quv materiallaridan foydalanish konstruktiv ta'lim metodologiyasini yaratish va baholashda kuchli salohiyatga egadir. Darhaqiqat, mazkur faoliyat o'z-o'zini boshqaradigan o'quv faoliyatni targ'ib qiladi, motivatsiyani, o'quvchilarning faolligini oshiradi va xarajatlarni cheklaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan dasturiy vositalardan mustaqil tarzda ta'limni davom ettirishlari, darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida mustahkamlashlari, qayta takrorlashi yoki o'z-o'zini sinab ko'rish uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Kvant fizikasi bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyalarning ovoz, grafik, matn kabi axborotlar tartiblangan sinxron ko'rinishda foydalanishi, shuningdek, obyekt, hodisani, jarayonni ko'p karrali tarzda idrok qilish, axborotni taqdim etishning bir nechta usulidan foydalanish, fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda imitatsion modellashtirish, murakkab hodisalar va jarayonlarni real hayotda tasavvur qilib bo'lmaydigan tarzda aks ettirish, fizik jarayonlarni dasturiy vositalar yordamida innovatsion loyihalash, ko'rgazmalilikni ta'minlash ko'zga ko'rinmaydigan (murakkab) fizik jarayonlarni vizuallashtirish murakkab tushunchalar va fizik hodisalar bitta hodisa orqali, so'ngra ikki yoki bir nechta axborotni taqdim etuvchi ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etilish tamoyillariga amal qilingan.

Akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalar yordamida multimediali o'quv kurs tarkibiy tuzilmasi (ko'zga ko'rinmaydigan (murakkab) fizik jarayonlarni vizuallashtirish, dars ishlanmalari, taqdimotlar, masalalar yechimi, Python dasturlash tili yordamida masalalar yechish usuli, namoyishli, munozarali, grafik-konstruksion va o'zini o'zi baholovchi testlar) ishlab chiqilib model takomillashtirildi. Nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etishda laboratoriya ishlarini bajarish muhim ahamiyatga ega. Akademik litseylarda mavjud laboratoriya jihozlarining eskirganligi, ayrim jihozlarning yetishmasligi hamda ularning o'rnini bosuvchi, iqtisodiy jihatdan kamxarajatli virtual laboratoriya ishlariga almashtirish maqsadida LabVIEW dasturiy vositasi yordamida 6 ta virtual laboratoriya ishlari tarkibiy tuzilmasi (asbob-


uskunaviy, sxematik-tasvirli, elektron-qurilmali virtual hamda ishning nazariy qismi, bajarish tartibi, nazorat savollari) ishlab chiqildi.

Kvant fizikasi bo‘limi mavzularini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning quyidagi ketma - ketligi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Kvant fizikasi bo‘limini raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitish ketma-ketligi.

Fotoeffektning birinchi qonuniga asosan, virtual laboratoriya elektron qurilmasi yordamida to‘lqin uzunligini o‘zgarimas 393 nm qiymatga sozlanadi, fotokatod materialiga alyuminiy tanlanadi, nurlanish quvvatini 20 mWga deb belgilansa va ta‘minlash manbayini mos ravishda ixtiyoriy -0.79 V dan oshirib borilsa, tok kuchining qiymati ham oshib borishi kuzatiladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Fotoeffekt hodisasini o'rganish virtual laboratoriya ishi.

Elektron qurilma yordamida kuchlanish va tok kuchining qiymatini kiritib hosil bo'lgan grafikni ko'rishimiz mumkin. Ta'minlash manbayi yordamida kuchlanish bir necha marta oshirilsa (-0.79V, -0.69V,...0.31V, 0.61V), tok kuchi ma'lum bir qiymatga erishadi va ortishdan to'xtaydi. Bu qiymatga to'yinish toki deyiladi (to'yinish toki 3 mA, 3-rasmga qarang).



3-rasm. Natijani kiritish va tajriba grafigi

Tajriba natijalariga ko'ra, nurlanish quvvati 20 mVt dan 30 mVt ga oshirilsa, to'yinish toki 3 mA dan 5 mA ga yetadi. Demak, ushbu laboratoriya ishida nurlanish quvvati oshirilsa, to'yinish toki qiymatining oshishi fotoeffektning birinchi qonuni bajarilishini izohlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar virtual laboratoriya majmuasida mavjud bo'lgan nurlanish quvvati, fatokatod materialini tanlash, tok kuchi, kuchlanish

natijalarini kiritish jadvalidagi fizik qiymatlarning o'zaro proporsionalligi va ta'minlash manbai yordamida kuchlanishni o'zgartirish orqali tajribaviy qiymatni topadilar va quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

– elektron qurilmadagi ishning qisqacha nazariy qismi va ishni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishib nazariy bilimlarni takrorlaydi hamda mustahkamlaydi;

– o'quvchilarda ichki motivatsiya paydo bo'lib, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi ongli ravishda orta boradi;

– aniq ilmiy ma'lumotlarga tayanib, xulosa chiqarish asosida o'zlariga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi;

– elektron qurilma yordamida natijalarni olish o'quvchilar uchun yangi bilimlarni kashf qiladi;

– o'quvchilarda elektron qurilma yordamida tajribaviy qiymatni hisoblab topish natijasida xulosa chiqarish, tahlil qilish tushunchalari shakllanadi va rivojlanadi.

Akademik litsey o'quv dasturiga, asosan, kvant fizikasi bo'limini o'qitish maqsadi o'quvchilardan nazariy, amaliy bilimlarni puxta egallash, fan-texnika taraqqiyotida qo'llash, akademik litsey bitiruvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Maqsad ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarning o'zaro teng hamda sinergetik imkoniyatlarini rivojlantirib, fizika fanini o'qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtiradi. Mazkur bo'limni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish akademik litsey bitiruvchilaridan axborot-kommunikatsion tayyorgarlik, kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirishni talab qiladi. Mazkur bo'lim mazmuni sifatida bularni amalga oshirish o'quv-tarbiya jarayonining innovatsion asoslaridan biri hisoblanadi.

Kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalar (Multimediali o'quv kurs, virtual laboratoriyalar) majmuasidan foydalanib, o'quv jarayonini tashkil etish bir qator afzalliklarga ega.

• o'quvchilarda mazkur bo'lim mavzulariga bo'lgan qiziqish, motivatsiya paydo bo'ladi va ortadi;

• dars jarayoni raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etiladi;

• darslar noan'anaviy tashkil etiladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida savol-javob, bahs-munozara tashkil qilishga erishiladi;

• darsda faqat o'qituvchini eshitmasdan o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar tinglanib, o'qituvchi tomonidan kerakli ko'rsatmalar berib borishga erishiladi;


• darsda o'qituvchi va o'quvchilar vaqtdan unumli foydalanishadi;

• darsdan tashqari mustaqil o'qish hamda bilim olish ko'nikmasi rivojlanadi

Kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etiladi: ma'ruza, amaliy ish, laboratoriya ishi, nazorat tizimi, o'quvchilarning mustaqil ishi. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, o'quv jarayonini an'anaviy tashkil etishning barcha shakllari ma'qullanadi. O'quv mashg'ulotlarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: nazariy (ma'ruza); amaliy (masala yechish, virtual laboratoriya ishi). Kvant fizikasi bo'limida multimediali o'quv kursi va LabVIEW dasturiy vositasi yordamida virtual laboratoriyalar, audio-vizual

materiallar mazmunini ishlab chiqish uslubiy ta'minotni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga olib keladi.

Akademik litseylar kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish modeli (4-rasmga qarang).



4-rasm. Akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilgan modeli

